

ISHSIZLIK DARAJASINING O'SISHI VA UNING IQTISODIY OQIBATLARI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

2-bosqich talabasi

Avlaqulova Dilnavoz Samadovna

Ilmiy rahbar:

Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich

Iqtisodiyot fanlari doktori professor

Annotatsiya: Ishsizlik — har bir mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammodir. Mehnat resurslaridan to'liq foydalanilmaganda ishlab chiqarish hajmi kamayadi, aholi daromadi pasayadi va iqtisodiy o'sish sekinlashadi. O'zbekiston sharoitida ham ishsizlik darajasining o'sishi dolzarb masala bo'lib, ayniqsa yoshlar va ayollar bandligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, ishsizlik sabablarini tahlil qilish va uning iqtisodiy oqibatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ishsizlik, bandlik, iqtisodiy o'sish, mehnat bozori, daromad, inflyatsiya, ijtimoiy muammolar, iqtisodiy barqarorlik.

Ishsizlik har qanday mamlakat iqtisodiyotida eng muhim va og'riqli muammolardan biridir. Ishsizlikning ortishi nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki ijtimoiy barqarorlikka ham tahdid soladi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ishsizlik masalasi har bir davlat oldida dolzarb masala sifatida turibdi. Ishsizlikning darajasi va tuzilmasi iqtisodiy tizimdagi nomutanosiblik, mehnat bozoridagi talab va taklif o'rtasidagi muvozanatsizlik, shuningdek, ishlab chiqarishning texnologik o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Ishsizlikning mohiyati shundan iboratki, mehnatga layoqatli aholining bir qismi mavjud ish o'rinlari bo'lishiga qaramay, turli sabablarga ko'ra ish topa olmaydi. Bu holat

iqtisodiy resurslarning samarasiz foydalanishiga olib keladi. Natijada ishlab chiqarish hajmi kamayadi, milliy daromadning o'sishi sekinlashadi va iqtisodiy rivojlanish jarayoni izdan chiqadi. Ishsizlikning o'sishi, ayniqsa, yoshlar orasida yuqori bo'lishi mamlakatning kelajagi uchun xavfli tendensiyadir.

Ishsizlikning asosiy turlari mavjud: friksion ishsizlik, strukturaviy ishsizlik, siklik ishsizlik va mavsumiy ishsizlik.

Friksion ishsizlik- bu iqtisodiyotda eng tabiiy va muqarrar hisoblangan ishsizlik turidir. U insonlarning ish joyini o'zgartirish, yangi ish izlash yoki bir ish joyidan boshqasiga o'tish jarayonida yuzaga keladi. Bunday holatda insonlar qisqa muddatga ish bilan band bo'lmaydi, lekin ular faol ravishda ish qidirishadi va yaqin orada ish topish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Friksion ishsizlikni ko'pincha "tabiiy ishsizlik" deb ham atashadi, chunki har qanday rivojlangan iqtisodiyotda ham u muqarrar mavjud bo'ladi. Sababi, mehnat bozori doimo harakatda — kimdir ishdan ketadi, kimdir yangi ish boshlaydi, boshqalar esa malakasiga mos joy izlaydi.

Bu turdagi ishsizlik iqtisodiy inqiroz yoki ishlab chiqarishdagi pasayish natijasida emas, balki shaxsiy qarorlar, kasbiy o'zgarishlar yoki geografik joy almashinuvi tufayli yuzaga keladi. Masalan, ishchi o'z kasbidan qoniqmay, boshqasiga o'tmoqchi bo'lishi yoki boshqa shaharga ko'chib, u yerda yangi ish izlay boshlashi mumkin. Shu oraliqda u vaqtinchalik ishsiz hisoblanadi.

Friksion ishsizlikning davomiyligi odatda qisqa muddatli bo'ladi, ammo mehnat bozori qanchalik rivojlangan bo'lsa, bu jarayon shunchalik tez kechadi. Ya'ni, ish izlash tizimi qulay, internet orqali e'lonlar samarali ishlasa, yangi ish topish vaqti qisqaradi.

O'zbekiston misolida olsak, friksion ishsizlik ko'proq yoshlar va malakali kadrlar o'rtasida kuzatiladi. Ko'plab bitiruvchilar o'z sohasiga mos ish joyi topishda qiynaladi yoki vaqtinchalik boshqa sohada faoliyat yuritadi. Bu holat mehnat bozorida ma'lumot va tajriba nomutanosibligidan dalolat beradi.

Strukturaviy ishsizlik-bu iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, texnologik yangilanishlar yoki sohalar o'rtasidagi nomutanosiblik natijasida yuzaga keladigan ishsizlik turidir. Bu holatda mavjud ishchilar o'z malakasi, kasbiy ko'nikmalari yoki ta'lim darajasi bilan yangi iqtisodiy sharoit talablariga javob bera olmaydi. Natijada ular mehnat bozorida raqobatlasha olmay, ishsiz qoladi.

Bu turdagi ishsizlik odatda uzoq muddatli bo'ladi, chunki u faqat ish izlash bilan emas, balki butun iqtisodiy tizimning tarkibiy o'zgarishi bilan bog'liq. Masalan, ilgari katta ahamiyatga ega bo'lgan bir tarmoq inqirozga uchrasa, u yerda ishlagan minglab odamlar o'z sohalariga mos yangi ish joylarini topolmay qoladilar. Shu bilan birga, yangi sohalar rivojlanayotgan bo'lsa-da, u yerlarda talab qilinadigan malaka darajasi eski ishchilarga to'g'ri kelmasligi mumkin.

Strukturaviy ishsizlikning asosiy sababi — mehnat bozori talabi bilan ishchi kuchi taklifi o'rtasidagi mos kelmaslikdir. Ya'ni, iqtisodiyotda yangi kasblar paydo bo'ladi, eski kasblarga esa ehtiyoj kamayadi. Ishchi kuchi esa bu o'zgarishlarga tezda moslasha olmaydi.

Strukturaviy ishsizlikning yana bir sababi — hududiy nomutanosiblik. Masalan, Toshkent yoki Samarqand shahrida zamonaviy texnologik sohalarda ish o'rinlari ko'p bo'lsa-da, qishloq joylarda bunday imkoniyatlar cheklangan. Natijada, bir hududda ishchi kuchi ortiqcha, boshqasida esa yetishmaydi. Ammo ko'chib borish imkoniyati, uy-joy masalasi, yashash sharoiti kabi omillar sababli odamlar osonlikcha joyini o'zgartira olmaydi.

Strukturaviy ishsizlik ijtimoiy jihatdan ham jiddiy muammo hisoblanadi. Malakasiz qolgan ishchilar uzoq vaqt ishsiz yurishi ularning daromadini pasaytiradi, ruhiy tushkunlikni kuchaytiradi va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtiradi. Ayniqsa, o'rta yoshdagi mutaxassislar uchun kasbni o'zgartirish yoki qayta o'qish oson emas.

Siklik ishsizlik- bu iqtisodiy faollikning pasayishi, ya'ni iqtisodiy inqiroz yoki turg'unlik davrida yuzaga keladigan ishsizlik turidir. U ishlab chiqarish hajmining kamayishi, talabning pasayishi va korxonalar faoliyatining sustlashuvi natijasida vujudga keladi. Ya'ni iqtisodiy o'sish davrida ish o'rinlari ko'payadi, ammo iqtisodiy inqiroz yoki pasayish davrida aksincha, ishchilar qisqartiriladi va ishsizlik ortadi.

Siklik ishsizlikning asosiy sababi — makroiqtisodiy siklning pasayish bosqichi bilan bog'liq. Bozor iqtisodiyoti doimo o'sish va pasayish davrlarini boshdan kechiradi. Shu jarayonda, ishlab chiqarish korxonalari mahsulotlariga bo'lgan talab kamayganda, ular xarajatlarni qisqartirishga majbur bo'ladi. Natijada ishchilarni ishdan bo'shatish yoki ishlab chiqarish hajmini kamaytirish holatlari yuz beradi.

Siklik ishsizlik, odatda, iqtisodiy siyosat, talabni rag'batlantirish, investitsiyalarni oshirish orqali kamaytiriladi. Lekin bu jarayon uzoq davom etadigan bo'lsa, u nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi — aholining daromadi pasayadi, kambag'allik ortadi va ijtimoiy tengsizlik kuchayadi.

O'zbekiston misolida, global iqtisodiy inqiroz yillari yoki pandemiya davrida ayrim tarmoqlarda ish o'rinlarining qisqarishi kuzatilgan. Masalan, xizmat ko'rsatish, transport, turizm sohalarida faoliyat vaqtincha to'xtaganligi sababli, ko'plab xodimlar daromadsiz qolgan. Bu esa mamlakatda qisqa muddatli siklik ishsizlikni yuzaga keltirgan.

Mavsumiy ishsizlik-bu yilning ma'lum davrlarida mehnatga bo'lgan talabning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan vaqtinchalik ishsizlik turidir. Ya'ni ayrim sohalarda ish faoliyati fasllarga, ob-havo sharoitlariga yoki ma'lum davriy ehtiyojlarga bog'liq

bo'ladi. Natijada yilning bir qismini ish bilan, boshqa qismini esa ishsizlik holatida o'tkazadigan ishchi kuchi shakllanadi.

Bu turdagi ishsizlik asosan qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, turizm va xizmat ko'rsatish sohalarida keng tarqalgan. Chunki bu tarmoqlarda mehnat jarayoni doimiy emas, balki mavsumiy xususiyatga ega.

Masalan, qishloq xo'jaligida ishchi kuchiga talab bahor va yoz oylarida, ya'ni ekin ekish, parvarishlash, hosil terish davrida eng yuqori cho'qqiga chiqadi. Shu paytda ko'plab vaqtinchalik ishchilar jalb qilinadi. Ammo kuz va qish oylarida deyarli ish bo'lmagani sababli ularning ko'pchiligi ishsiz qoladi. O'zbekiston sharoitida paxtachilik, g'allachilik, meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmoqlarida bu holat juda yaqqol seziladi.

Qurilish sohasi ham mavsumiylik ta'sirida. Ob-havo sovuq bo'lgan fasllarda qurilish ishlari to'xtaydi yoki qisqaradi. Bu davrda quruvchilar, ustalar, g'isht teruvchilar, bo'yoqchilar va boshqa ko'plab ishchilar vaqtincha daromadsiz qoladilar. Bahor va yozda esa yangi qurilish loyihalari boshlanishi bilan ishchi kuchiga talab ortadi.

Mavsumiy ishsizlikning eng asosiy sababi — mehnatga bo'lgan talabning notekisligi. Ya'ni ishchi kuchiga ehtiyoj yil davomida bir maromda emas, balki ma'lum davrlarda oshib, keyin kamayib boradi. Bu esa aholining doimiy daromad manbaidan mahrum bo'lishiga olib keladi.

Ijtimoiy nuqtai nazardan, mavsumiy ishsizlikning oqibatlari ham jiddiydir. Yilning ayrim oylarida daromad topa olmaydigan aholi moliyaviy jihatdan qiyinchilikka duch keladi, bu esa ijtimoiy tengsizlik va kambag'allikning kuchayishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, qishloq joylarda aholining katta qismi mavsumiy ishlarga tayanib yashaydi.

O'zbekiston sharoitida ham ishsizlik muammosi dolzarbligicha qolmoqda. So'nggi yillarda iqtisodiyotning barqaror o'sishi, yangi ish o'rinlarini yaratish, kichik

biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rilayotgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda mehnat bozoridagi muvozanatsizlik saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini ta'minlash, ularni zamonaviy kasb-hunarga o'rgatish, mehnat migratsiyasi oqibatlarini kamaytirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan ishsizlikning o'sishi yalpi ichki mahsulotning (YaIM) kamayishiga sabab bo'ladi. Okun qonuniga ko'ra, ishsizlik darajasining 1 foizga ortishi YaIMning 2 foizga kamayishiga olib keladi. Bu iqtisodiyotda ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq ishlamayotganini bildiradi.

O'zbekiston hukumati so'nggi yillarda mehnat bozorini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli dasturlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, "Har bir oila — tadbirkor", "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", "Kasbga o'qitish markazlari" kabi tashabbuslar aholining bandligini ta'minlashga qaratilgan. Bularning barchasi ishsizlikni kamaytirish, aholining daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, chet elda ishlayotgan fuqarolarning huquqlarini himoya qilish ham mehnat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Shunga qaramay, ayrim hududlarda ish o'rinlarining yetarli emasligi, yoshlarning malaka va kasbga yo'naltirishdagi kamchiliklar, ish haqi darajasining pastligi ishsizlikni butunlay bartaraf etish imkonini bermayapti. Shu sababli, iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida innovatsion iqtisodiyotga o'tish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bir qatorda, aholini yangi mehnat ko'nikmalariga o'rgatish, o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Ishsizlikning o'sishi bilan bog'liq iqtisodiy oqibatlardan yana biri davlat byudjetiga tushumlarning kamayishidir. Ishsizlar soliqqa tortilmaydi, aksincha, ularning nafaqalari uchun byudjet xarajatlari ortadi. Bu esa fiskal muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu

sababli, ishsizlik darajasini barqaror ushlab turish davlat moliyaviy siyosatining ham asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Shuningdek, ishsizlikning ortishi ichki talabning qisqarishiga olib keladi, chunki aholining xarid qobiliyati pasayadi. Bu holat o‘z navbatida ishlab chiqaruvchilar uchun bozor hajmining torayishiga sabab bo‘ladi, natijada iqtisodiyotda “aylanma inqiroz” yuzaga keladi. Shu sababli, mehnat bandligini ta‘minlash iqtisodiy barqarorlikning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Ishsizlik darajasining oshishi jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi, kambag‘allar sonining ortishiga olib keladi. Bu esa aholining ayrim qatlamlari orasida norozilik kayfiyatining kuchayishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, ishsizlikning oldini olish siyosati faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy barqarorlikni saqlash nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Ish o‘rinlarini yaratish siyosati har bir mamlakat uchun ustuvor vazifa bo‘lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, ishsizlik — har bir mamlakat iqtisodiyotining eng dolzarb va murakkab muammolaridan biridir. U nafaqat iqtisodiy o‘sish sur‘atlariga, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ishsizlik darajasining oshishi ishlab chiqarishning kamayishiga, aholi daromadlarining pasayishiga, kambag‘allikning ortishiga hamda iste‘mol bozorining qisqarishiga olib keladi. Natijada mamlakat iqtisodiyoti sekinlashadi va aholi farovonligida salbiy o‘zgarishlar yuz beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni.

3. “O‘zbekiston Respublikasida bandlik to‘g‘risida”gi Qonun, 2021-yil 6-oktabr.
4. G‘ulomov S.S., Egamberdiyev S. Makroiqtisodiyot nazariyasi. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
5. Muminov N., Abdurahmonov Q. Mehnat bozori iqtisodiyoti. — Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2020.
6. Jahon banki ma’lumotlari: <https://www.worldbank.org>